

KOREYA RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINING TASHKIL TOPISHI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

*Muallif: Bekkayev Jasur Shermaxmatovich
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti*

Annotatsiya: Jahon tajribasi qayta va qayta ko'rsatib bermoqdaki qaysi mamlakatda Ta'lim tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilsa va uni doimiy rivojlantirib borsa bu yerda barcha sohalar ravnaq topadi, mamlakat iqtisodiyoti tez sur'atlarda rivojlanadi. Xususan 1950-1990 yillar oralig'ida juda tez rivojlanib Gong Kong, Singapur, Tayvan kabi davlatlar qatorida Janubiy Koreya ham "Osiyo yo'lbarzlari" maqomiga loyiq ko'rildi.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, boshlang'ich, o'rta, yuqori va oliy ta'lim, o'qitish metodikasi, ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari

Kirish: Rivojlangan mamlakatlarda olib borilayotgan ilg'or Ta'lim tizimining natijalarini tahlil qilgan qolganda, ular orasidan o'zimizga moslarini tadbiq qilish va yanada mukammaltirish tez fursatlarda yuqori va samarali natijalarga erishish kaliti bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston bilan o'zaro madaniyatlari o'xshash, uzoq muddatli mustahkam aloqalarga ega Janubiy Koreyaning bu sohadagi yutuqlarini o'rgainsh bizda hali ishga solinmagan imkoniyatlarni yuzaga chiqishiga ko'maklashadi

Asosiy qism: Koreyaning ta'lim tizimi paydo bo'lib, ravnaq topishida juda qiyin bosqichlarni bosib o'tishga majbur bo'ldi. Ikkinchi jahon urushida Yaponiyaning mustamlaka davlati sifatida qiyin davrlarni o'tkazgan bo'lsa, yana Koreya urushi sabab Yarim orol Shimoliy Koreya(KXDR) va Janubiy Koreya (Koreya Respublikasi) ga bo'linib ketdi. Koreyaning zamonaviy ta'lim tizimi rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo'lgan 1945-yildan boshlangan. Ammo kengroq qaraydigan bo'lsak, koreyslarda ta'lim tizimi 1894-yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan deyish mumkin. 1881-yili Koreyadagi Choson hukumati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish maqsadida maxsus armiya tuzadi va g'arbliklar harbiy san'atdan dars bera boshlaydilar.

Bu o'z navbatida chet tili va boshqa fanlar ta'limini yuzaga kelishini ta'minladi. Garchi 1882-yili maxsus qo'shin uchun darslar to'xtab qolgan bo'lsa-da, bir qancha amaliy fanlar darsi davom etaverdi. Bu davrda asta-sekinlik bilan Gvangxevon, Bejexakdan, Ixvaxakdan kabi shaxsiy ta'lim muassasalari ham vujudga kela boshladi va keyinchalik universitetlar uchun asos bo'lib xizmat qildi. 1894-yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtirilib, mamlakat ta'lim tizimini boshqaruvchi institut tashkil etildi. Shu bilan birga 1895-yildan boshlang'ich maktablar va maktab uchun kadrlar tayyorlaydigan pedagogika maktablar tuzildi. Bundan tashqari bir qancha xususiy

maktablar ochildi. 1900-yilda ular faoliyatini tartibga solib turadigan «Xususiy maktablar to'g'risidagi qonun» qabul qilindi. 1910-yili Koreya va Yaponiya o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq Koreya Yaponiyaning rasman mustamlakasiga aylantirildi. Natijada bu mamlakat ta'lim tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Yapon mustamlakachilari Koreyaning ta'lim tizimini keskin o'zgartirish yo'lidan bordi va xususiy maktablar faoliyati cheklab qo'yildi. Unga ko'ra, koreys va yapon fuqarolarining farqli ta'lim siyosati olib borildi. Ya'ni, mahalliy xalq faqat 4 yil mobaynida boshlang'ich ta'lim olar, o'rta va oliy ta'lim berilmas edi. Bu yapon mustamlakachiligining uzoq o'ylangan rejaları qatoriga kirardi. Ammo 1919-yili boshlangan norozilik harakatlari oqibatida Yaponiya hukumati biroz yon berishga majbur bo'ldi va buyruqqa o'zgartirish kiritib, boshlang'ich ta'lim 4 yildan 6 yilga uzaytirildi. 1922-yil 4-fervalda «3-Choson ta'lim buyrug'i» qabul qilindi. Bu buyruqqa ko'ra, ta'lim muddatlari uzaytirildi. Ya'ni, oddiy maktablarda ta'lim 6 yil, ayollar maktablarida esa 5 yil etib belgilandi. Shuningdek, asta-sekinlik bilan universitetlar ham paydo bo'la boshladi. Jumladan, 1924-yili Kyongson Davlat Universiteti ochildi.

Oddiy maktablar va boshlang'ich maktablar, yuqori va o'rta maktablar birlashtirildi. Koreys tili fanlari kamaytirilib, imperiya xalq demokratiyasi fani kiritildi. 1943-yil 3-avgustda «4-Choson ta'lim buyrug'i» imzolandi va yapon mustamlakachiligining ta'lim sohasidagi zo'ravonligi kuchaydi. Jumladan, o'rta va yuqori maktablarda ta'lim 4 yilgacha kamaytirilib, koreys tili fani dasturdan olib tashlandi. Uning o'rniga yapon tili darslari kiritildi. Koreyani yoppasiga savodsizga aylantirish siyosati natijasi o'laroq, 1944-yilgi Koreya Umumiy Arxiv qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda o'sha paytda Koreyaning savodxonlik darajasi bor-yo'g'i 13,8%ni tashkil etgan. 1945-yili Ikkinchi Jahon urushi bilan birga Koreyadagi Yaponiya mustamlakachiligi ham tugadi. Endilikda Koreyada tabiiyki boshqa sohalar qatori ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi turardi. Eng avvalo «Ta'limni rivojlantirish qo'mitasi» tashkil etildi va qo'mita oldiga darsliklar yaratish majburiyati qo'yildi. Ta'lim tizimi tadqiq etilishi davom ettirilib, odob-axloq, etika, texnikaga oid fanlar kiritildi. 1963-yillardan boshlab esa ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor kuchaydi. 1981-yili Prezident Chon Du Xvan mamlakatda shaxsiy ta'lim berish va xususiy ta'lim maskanlari faoliyatini qonunan ta'qiqlab qo'ydi. Lekin maktabda mustaqil shug'ullanish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. 1992-yilga kelib esa boshlang'ich maktablar faoliyati yanada rivojlanishi uchun hukumat tomonidan bir qancha imtiyozlar yaratildi.

Zamonaviy Koreya ta'lim tizimida boshlang'ich maktablarning roli muhim. Koreyada boshlang'ich ta'lim uchun o'quv yilida 1-martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Lekin 5 yoshli bolalar ham o'qishga kirishga huquqli bo'lib, buning uchun maktab ma'sul shaxsining ruxsatnomasini olishi lozim bo'ladi.

O'quv yili esa 1-mart Koreya Respublikasida davlat bayrami munosabati bilan 2-martdan boshlanadi. 6 yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Boshlang'ich ta'limda 1 yil ikki semestrda bo'lingan holda olib boriladi. Boshlang'ich ta'limdan keyingi «zinapoya» vazifasini o'rta ta'lim bajaradi. O'rta ta'lim Koreya Respublikasida 3 yil davom etadi. O'rta ta'lim ham majburiy bo'lib, o'quv yili 1-martdan keyingi yil mart oyiga qadar davom etadi. Darslar 45 daqiqadan etib belgilangan bo'lib, bir yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablarida davlat tili, tarbiya, ijtimoiy fan, matematika, jismoniy tarbiya, musiqa, san'at, chet tili kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. Shuningdek, o'rta maktabda o'quvchi uchun tanlov fanlar mavjud. Bular qatoriga axborot, chet tili (ko'pincha nemis, fransuz, ispan, xitoy, yapon, rus, arab tillari) kabilarni kiritish mumkin. O'rta maktab tugatilgach yuqori maktablarda ta'lim davom ettiriladi. Yuqori maktablar bir necha turlarga bo'linadi: davlat yuqori maktablari (Koreya Ta'lim va Texnika fanlari vazirligi, Madaniyat, Jismoniy tarbiya va sayyohlik vazirligi boshqaradi), Umumiy yuqori maktablar (Har bir viloyatdagi yuqori tashkilotlar tomonidan boshqariladi), xususiy yuqori maktablar. Shuningdek, yuqori maktablar o'qitish fanlariga ko'ra ham bir qancha turlarga bo'linadi: umumiy maktablar, ixtisoslashtirilgan maktablar (qishloq xo'jaligi, sanoat, dengiz xo'jaligi, axborot), maxsus maktablar (litsey shaklidagi maktab), texnika maktablari, chet tili maktabi, jismoniy tarbiya maktabi, san'at maktablari. Koreya Respublikasida Ta'lim vazirligi maxsus tashkil etgan yuqori maktablar ham bor. Bular asosan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, xalqaro tillarga ixtisoslashgan bo'ladi.¹

Janubiy Koreyada yaxshi ta'lim olish har qanday koreysning muvaffaqiyatli martabasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega, shuning uchun nufuzli ta'lim muassasasiga kirish vazifasiga ustuvor ahamiyat beriladi va kirish imtihonlarini topshirish jarayoni juda murakkab. Koreya davlat ma'muriy organlari bolaning dastlabki yillaridan to o'rta maktabdagi so'nggi yilgacha butun o'quv jarayonini aniq shakllantiradi va nazorat qiladi. Matematikaga, koreys va ingliz tillariga, aniq fanlarga va jamiyat fanlariga kuchli e'tibor qaratiladi. Janubiy Koreya boshlang'ich maktablardan universitetlargacha bo'lgan barcha ta'lim muassasalarida yuqori tezlikdagi Internetga kirishni ta'minlagan birinchi mamlakat bo'ldi. O'quv yili ikki semestrda bo'lingan. Birinchisi mart oyida boshlanadi va iyul o'rtalarida tugaydi; ikkinchisi avgust oyining oxirida boshlanadi va dekabr o'rtalarida tugaydi. O'quv dasturi qat'iy tartibga solinmagan va har bir muassasada bir-biridan farq qilishi mumkin.

Ta'lim tizimining umumiy tuzilishi

Bosqich	O'qish muddati	Majburiy
Boshlang'ich maktab	6 yil	Ha

¹Manba: http://www.ziyouz.com/index.php?option=com_content&task=view&id=2826

O'rta bosqich maktabi	3 yil	Ha
Yuqori bosqich maktabi	3 yil	Yo'q
Kollej	2 yil	Yo'q
Universitet	4 yil	Yo'q

Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Janubiy Koreyada ta'lim masalalari Ta'lim vazirligi tomonidan boshqariladi. 2001-yilda Kim Dae Jong ma'muriyati fuqarolarning sifatli ta'lim olishiga eng yuqori ustuvor ahamiyat berdi, natijada vazirlik vakolatlari kengaytirildi va uning rahbariga bosh vazir o'rinbosari unvoni berildi. Boshqa barcha Vazirlar singari, ta'lim vaziri ham ta'lim sohasi bilan bog'liq bo'lgan nomzodlar orasidan amaldagi prezident tomonidan juda qisqa muddatga (taxminan bir yil) tayinlanadi.

Bolalar bog'chasi: Koreys bolalar bog'chalarini umumiy ta'lim ma'muriy dasturining bir qismi emas, ota-onalar o'z farzandlarini xususiy muassasalarga berishadi. Ularning aksariyatida o'qitish koreys tilida olib boriladi, ba'zilarida esa ingliz tili asosiy til hisoblanadi. Bolalar bog'chalariga uch yoshdan besh yoshgacha bo'lgan bolalar beriladi. Aksariyat bolalar "maktabgacha" ta'lim olmasliklari mumkin, ammo boshqa bolalar bilan bolalar bog'chasiga borishlari mumkin, shu bilan birga yosh farqi uch yoshga yetishi mumkin. Olti yoshga to'lganda, bolalar odatda boshlang'ich maktabga boradilar. Xuddi shu davrda maktabgacha ta'lim o'qituvchilari soni 3339 dan 11920 gacha o'sdi, ularning aksariyati — 92 foizi ayollar edi. Bu bir qator sabablarga ko'ra yuzaga keladi:

- Ta'lim vazirligi tomonidan rag'batlantirish va yordam;
- Mehnat bozoriga kiradigan ayollar sonining ko'payishi;

Boshlang'ich maktab: Boshlang'ich maktab 6-7 yoshdan 11-12 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. O'qish muddati 6 yil. XX asrning 80-yillari oxiriga qadar ingliz tili odatda ikkinchi darajali maktablarda o'qitila boshlandi, ammo endi u boshlang'ich maktabning uchinchi sinfidan joriy etildi. Koreys tili grammatika nuqtai nazaridan ingliz tilidan juda farq qiladi, shuning uchun ingliz tilini o'zlashtirish juda qiyin, ammo nisbatan kam muvaffaqiyat bilan amalga oshiriladi. Ko'pgina ota-onalar o'z farzandlarini O'quv markazlariga berishdi. Mamlakatda tobora ko'proq maktablar ingliz tili ona tili bo'lgan chet elliklarni o'qishga jalb qila boshladilar. Koreyada boshlang'ich maktablardan tashqari bir qator xususiy maktablar mavjud.

Ikkinchi bosqich maktabi (O'rta maktab): Ikkinchi bosqich koreys maktabida 3-sinfdan boshlanadi va aksariyat o'quvchilar unga 12-13 yoshida kirishadi va 14-15 yoshida bitiradilar. Boshlang'ich maktab bilan taqqoslaganda, ikkinchi bosqich maktabi o'z o'quvchilariga nisbatan ancha yuqori talablarga ega. Deyarli har doim o'quvchi hayotining boshqa jihatlari singari kiyim va soch turmagi qat'iy tartibga solinadi. Boshlang'ich maktabda bo'lgani kabi, maktab o'quvchilari ham kunning ko'p qismini sinfdoshlari bilan bir sinfda o'tkazadilar, ammo har bir fan o'z o'qituvchisi

tomonidan o'qitiladi. O'rganilayotgan mavzular soni va mavzularning o'zi yildan-yilga o'zgarib turadi. Darsning davomiyligi 45 minut. Birinchi dars boshlanishidan oldin talabalar ixtiyorida taxminan 30 daqiqa bor, ular o'z xohishiga ko'ra o'z ustida ishlashi, maxsus ta'lim kanali (Education Broadcast System, EBS) tomonidan efirga uzatiladigan dasturlarni ko'rishi, shaxsiy yoki sinf ishlarini bajarish uchun ishlatilishi mumkin. Boshlang'ich maktabda bo'lgani kabi, o'quvchilar ham akademik ko'rsatkichlaridan qat'i nazar, sinfdan sinfga o'tishadi. Baholar, birinchi navbatda, kasbiy texnik martaba emas, balki ilmiy martaba qilishni istaganlar uchun o'qishning so'nggi yilida juda muhim rol o'ynay boshlaydi, chunki ular o'quvchining ma'lum bir universitetga kirish imkoniyatiga ta'sir qiladi. Muayyan fanlar uchun imtihonning bir nechta standart shakllari mavjud va "ilmiy" fanlarning o'qituvchilari tavsiya etilgan o'quv qo'llanmalariga rioya qilishlari shart, ammo odatda ikkinchi darajali maktab o'qituvchilari universitetlardagi o'qituvchilarga qaraganda kurs dasturi va o'qitish usuli bo'yicha katta vakolatlarga ega. Maktabdan keyingi ikkinchi bosqichdagi ko'plab o'quvchilar qo'shimcha kurslarda qatnashadilar yoki xususiy repetitorlar tomonidan o'qitiladi. Ingliz tili va matematikaga alohida e'tibor beriladi. Ba'zi o'quv markazlari faqat bitta mavzuga ixtisoslashgan, boshqalari esa birinchisi (rasmiy) tugagandan so'ng darhol maktab mashg'ulotlarining ikkinchi bosqichiga aylanishi mumkin bo'lgan barcha asosiy fanlarga ixtisoslashgan, ko'pincha o'quvchiga ko'proq yuk tushadi. Bundan tashqari, ba'zi o'quvchilar kechqurun uyga qaytib, jang san'atlari to'garaklarida yoki musiqa maktablarida o'qiydilar.

Yuqori maktab: Maktablar ma'lum bir o'quvchining manfaatlariga mos keladigan va uning kelajakda tanlagan kasbiga to'g'ri keladigan ixtisoslashtirilgan bo'limlarga bo'linishi mumkin. Masalan, "ilmiy" o'rta maktablar, chet tillarini o'rganish maktablari va san'at maktablari mavjud. Ularning barchasi qabul qilish uchun juda murakkab imtihonlarni talab qiladi. O'rta maktablarni jamoat va xususiy maktablarga bo'lish mumkin. Bunday maktablar hech qanday mutaxassislik bermaydi, balki o'z o'quvchilarini universitetga kirishga tayyorlaydi. Biron sababga ko'ra universitetda o'qishni istamaydigan o'quvchilar uchun muhandislik, qishloq xo'jaligi yoki moliya sohalariga ixtisoslashgan kasb-hunar maktablari mavjud. Asosiy fanlar ro'yxatiga koreys va ingliz tillari, matematika, shuningdek turli xil ijtimoiy va tabiiy fanlar kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, muayyan fanlar va ularni o'qitish darajasi har bir maktabda bunday ta'lim muassasalarining ixtisosligiga qarab farq qilishi mumkin. Shunga qaramay, OECD hisob-kitoblariga ko'ra, 2005-yilda yosh koreyslarning 97 foizi o'rta maktabni tugatgan. Bu dunyodagi eng yuqori foiz.²

Natijalar: Murakkab bosqichlarni bosib o'tgan Koreya ta'lim tizimi bugungi kunga kelib dunyoning eng ilg'or namuna bo'la oladigan ta'lim tizimiga aylandi.

² <https://uz.wikipedia.org>

Buning uchun hukumatning bu soha uchun bergan alohida e'tibori va qo'llab-quvvatlashini alohida ta'kidlash zarur. Tabiiy zahira boyliklari deyarli yo'q bo'lgan davlat aholisining sifatli ta'lim olishini yo'lga qo'yib, ishlab chiqarish ya'ni qo'shimcha qiymat yaratishni rivojlantirdi. Sohalarning o'zaro hamkorligi natijasida oliygohlarni bitiruvchi kadrlar zarur ish o'rinlari bilan ta'minlandi. Bugungi kunda mashhur brendlar sanaluvchi LG, Hyundai, POSCO kabi yirik kompaniyalar ham o'zlari uchun zarur bo'lgan yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini mahalliy kadrlar orqali to'ldira oldi. Shu boisdan ta'lim tizimini doimiy rivojlantirishni zamonning o'zi talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://english.moe.go.kr> (Ministry of Education (Republic of Korea))
2. <https://www.oecd.org>
3. <http://www.ziyouz.com>
4. <https://uz.wikipedia.org>